


# MAKTABGA SAYOHAT



## O'quvchiga esdalik

Bo'lay desang bog'bon  
Yo Vatanga posbon,  
Yo osmonda uchuvchi,  
Yo dengizda suzuvchi,  
Nimaki qilsang tilak  
Bariga o'qish kerak.  
O'quvchi sendan talab:  
Maktabga bor ertalab,  
O'qi, berib mehringni,  
Qo'yib ko'ngil, zehningni.




*Quddus Muhammadiy*



Akmal, maktabimizda sinf xonalaridan boshqa yana qanday joylar bor?

Kel, buni birgalikda bilib olamiz.



Bu – sınıf xonasi. Bu yerda dars o’tiladi, bolalar turli fanlarni o’rganadilar. Siz qanday fanlarni o’rganyapsiz?



Sinf xonasi

Bu – maktab yo’lagi. Bu yerda tanaffus payti o’quvchilar vaqt o’tkazishi mumkin. Yo’lakda yugurish va shovqin solish mumkin emas.

Nima uchun?



Maktab yo’lagi



### Yodda tuting


Maktabda telefonidan foydalanishning tartib-qoidalari bor:

- maktab hududida telefon qo’ng’iroq’ining ovozini pasaytirib qo’yish kerak;
- dars boshlanishidan oldin telefonni o’chirib, portfelga solib qo’yish zarur.



Sport zalida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari o'tkaziladi. Bu yerda o'quvchilar jismonan chiniqadilar. Sport zaliga o'qituvchi boshchiligidagi kirgan ma'qul.


Nima uchun?



Maktabdagi yig'ilish va bayramlar ijod zalida o'tkaziladi. Bu yerda sahna hamda tomoshabinlar uchun o'rindiqlar mavjud.

Bolalar sahnada o'z qobiliyatlarini ko'rsatadilar, qo'shiq kuylaydilar va raqsga tushadilar.

Ijod zalida o'quvchi o'zini qanday tutishi kerak?





Maktab oshxonasida o'quvchilar ovqatlanishlari mumkin. Ovqatlanishdan oldin va keyin qo'llarni yuvish odobdandir. Ovqatlanayotgan paytda telefonga chalg'imaslilik kerak.

Maktab oshxonasida o'quvchi o'zini qanday tutishi kerak deb o'ylaysiz?



Kitob – bilim olish manbalaridan biri. Maktab kutubxonasida turli qiziqarli kitoblar saqlanadi. O'quvchilar kutubxonadan kitob olishlari va o'quv zalida o'qishlari mumkin.

Kitoblarni o'qish uchun uyga olib ketish ham mumkin. Biroq ularni kutubxonaga o'z vaqtida, butun holda qaytarish kerak.

Siz qanday kitoblar o'qishni yoqtirasiz?



Har bir maktabda tibbiyot xonasi mavjud. Kimdir jarohat olsa, o'zini yomon his qilsa yoki isitmasi chiqsa, maktab shifokori unga yordam ko'rsatadi.

Yana qanday holatlarda maktab tibbiyot xonasiga murojaat qilinadi?



Maktab psixologi – qiyin holatlarda yordam berib, qo'llab-quvvatlaydigan mutaxassis.

O'quvchi maktabda, uyida yoki ko'chada og'ir vaziyatga tushsa, bu haqda psixolog bilan gaplashishi mumkin. G'azab, hayajon yoki xavotirini ichda saqlash kerak emas. Agar bolalar bilan biror kor-hol ro'y bersa, maktabdagi kattalar ularga yordam berishga tayyor.






Hojatxona nima uchun kerakligini hamma biladi. Uni toza saqlash birinchi navbatda sog'lig'imiz uchun muhim hisoblanadi. Hojatxonadan tartibsiz foydalanish, eshiklar va devorlarni tepib, ularga chizish, iflos qilish, gigiyena qoidalarini buzish tarbiyasizlikka kiradi.

Hojatxonadan foydalanib bo'lgach:

- qog'ozni axlat qutisiga tashlash;
- suv tushirgichni ishlatalish;
- qo'llarni sovunlab yuvish kerak.

Qo'l yuvish qoidalarini bilasizmi?




Maktab hovlisi maktab atrofidagi o'rالgan hudud hisoblanadi. Bu yerga daraxt va gullar ekish mumkin. Ekilgan gullarni yoki daraxtlarni asrab-avaylash va gulzorga aylantirish kerak.





Maktab hovlisida sport maydonchalari bo'ladi. Bu yerda issiq kunlarda jismoniy tarbiya darslari, sport musobaqlari o'tkaziladi.

Sport maydonchalarida qanday jismoniy mashqlar va sport turlari bilan shug'ullanish mumkin?



### Sport maydonchasi



### Yodda tuting

**Evakuatsiya** – odamlarni xavfli hududdan olib chiqish.

Ba'zan maktabda yong'in, gaz sizib chiqishi yoki zilzila singari kutilmagan hodisalar sodir bo'lishi mumkin. Bunday hollarda o'quvchilarni qutqarish uchun maktab devorlariga evakuatsiya rejali bilan qo'yiladi.



## O'qituvchi yordamida o'rganing

Evakuatsiya rejasidagi belgilarga diqqat qiling.



asosiy evakuatsiya  
yo'li




yong'in o'chirish  
vositasi



olov o'chirgich



yong'indan ogohlantirish  
tugmasi







## Og'zaki topshiriq

Bu faoliyatlar bilan o'quvchilar mакtabning qaysi xonalarida shug'ullanadilar?



## Bo'yang

1. Dars siz uchun qiziqarli bo'ldimi?



2. Dars mazmuni tushunarli bo'ldimi?

